



TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING INTERNATIONAL MONEY TRANSFER SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

¹**Umarova Lola
Erkinovna**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada xalqaro pul o'tkazmalari bozorida yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalar, raqamli texnologiyalarning o'rni va fintech kompaniyalari bilan raqobat sharoitida tijorat banklarining ushbu xizmatni takomillashtirish zarurati yoritilgan. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasiga yuborilayotgan pul o'tkazmalari hajmining o'sish dinamikasi tahlil qilingan, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article explores modern trends in international money transfers, emphasizing the increasing competition between commercial banks and fintech companies. It highlights the role of digital technologies in enhancing the efficiency and competitiveness of cross-border remittance services. Based on statistical analysis, the paper reviews the dynamics of remittance inflows to Uzbekistan and offers practical recommendations for improving banking services in this area.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *xalqaro pul o'tkazmalari, tijorat banklari, fintech, raqamli to'lovlar, to'lov tizimi, SWIFT, P2P, bank infratuzilmasi.*

❖ *international money transfers, commercial banks, fintech, digital payments, payment systems, SWIFT, P2P, banking infrastructure.*

Kirish.

Hozirgi globallashuv sharoitida xalqaro pul o'tkazmalari dunyo moliyaviy bozorining uzviy qismlaridan biriga aylanmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga qadar rivojlanayotgan mamlakatlarga yuborilgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmi 700 milliard dollardan, jahon bo'yicha esa 900 mlrd. dollardan oshgan [1]. Bunday ko'lamdagi moliyaviy oqimlar milliy bank tizimining barqarorligiga, tashqi savdo aylanmasiga va aholining turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishi va fintech kompaniyalarining bozorda faollashuvi xalqaro pul o'tkazmalari sohasidagi raqobat muhitini

kuchaytirmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari xalqaro pul o'tkazmalari sohasida an'anaviy banklarga nisbatan arzonroq, tezkor va qulay xizmatlar taklif etayotgan fintech kompaniyalari bilan raqobatga kirishmoqda.

Amaliyotda esa ushbu bozorda bir qator muammolar mavjud: o'tkazmalarni amalga oshirish muddatining uzoqligi, xizmatlar bo'yicha yuqori komissiyalar, xalqaro tartibga soluvchi talablarning murakkabligi va raqamli texnologiyalardan etarlicha samarali foydalanmaslik holatlari. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari xizmatlarini takomillashtirish, mijozlar uchun ularning samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xalqaro valyuta fondi pul o'tkazmalari, mazmunan, asosan shaxslarning vaqtincha yoki doimiy ravishda xorijiy mamlakatlarga ko'chib o'tishi natijasida, mahalliy xonadonlar tomonidan xorijdan olinadigan daromadlar shaklida namoyon bo'lishi qayd etadi. Shu bilan birga, rasmiy ta'riflar bu tushunchadan ancha keng qamrovli bo'lib, to'lov balansi me'yoriy ta'riflariga asoslanadi va bevosita migratsiya, bandlik yoki oilaviy munosabatlar tushunchalariga bog'lanmagan [2]. Ushbu ta'rifda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan pul o'tkazmalari mazmuni asosan shaxslarning vaqtinchalik yoki doimiy migratsiyasi bilan bog'langan daromad shaklida ko'rsatilayotgani qayd etilgan. Biroq, ta'rifning o'zida mazkur tushunchaning kengroq ifodasiga, ya'ni to'lov balansi me'yoriy ta'riflariga tayanilgan holda, uning migratsiya, bandlik yoki oilaviy munosabatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emasligi alohida ta'kidlanmoqda.

Bu yerda muayyan ziddiyatli nuqta ham mavjud: agar pul o'tkazmalari asosan shaxslarning migratsiyasi natijasida shakllanadigan daromad sifatida ko'rsatilsa, ularning ta'rif jihatidan ushbu omillardan mutlaqo mustaqil tarzda ifoda etilishi qay darajada to'g'ri ekani shubha uyg'otadi. Chunki pul o'tkazmalari tabiati jihatidan inson harakati, mehnat migratsiyasi va oilaviy aloqalarga bevosita bog'liq bo'lib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy omillari orqali shakllanadi. Shu bois, rasmiy ta'rifda bu bog'liqlikni kamaytirishga bo'lgan urinish amaliyotga mutanosib kelmasligi mumkin.

Yana bir jihatdan, to'lov balansi uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatsiyada pul o'tkazmalari manbalari va maqsadlarini aniqlash muhim bo'lgani bois, ularni kengroq va neytral ta'riflashga intilish tushunarli. Biroq, bunday yondashuv siyosat ishlab chiqaruvchilar va tahlilchilar uchun pul o'tkazmalari ta'sirining chuqur ijtimoiy-

iqtisodiy mohiyatini anglashda ma'lum darajada cheklovlar yuzaga keltiradi.

Empirik tahlil olib borgan M.Naseem pul o'tkazmalari va ta'lim o'rtasidagi o'zaro ta'sir iqtisodiy murakkablik bilan ijobiy bog'langanligini qayd etadi. Xususan, muhojirlar tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari iqtisodiy murakkablikka ijobiy ta'siri yuqori ta'lim darajalari mavjud bo'lgan hollarda kuchayishi aniqlagan [3]. M.Naseem tomonidan olib borilgan empirik tahlilda pul o'tkazmalari va ta'lim o'rtasidagi o'zaro ta'sir iqtisodiy murakkablik bilan ijobiy bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Ushbu xulosa nazariy jihatdan mantiqiy ko'rinadi — chunki ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda pul o'tkazmalari investitsiya va innovatsiya salohiyatini yuzaga chiqarishga ko'proq xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham, M.Naseemning natijalari muayyan shart-sharoitlarda amal qilishi mumkin, lekin ularni umumiy qoida sifatida barcha kontekstlar uchun qo'llash mumkinligi bahslidir. Bu natijalarni amaliyotga tatbiq qilishda har bir mamlakatning institutsional, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Mahalliy olimlarimizdan Z.Umarov va O.Jo'rayev barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish aholiga tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan pul o'tkazmalari turlarini muntazam ravishda kengaytirishni hamda ularning sifati va samaradorligini oshirishni talab etishini qayd etadi. Bu jarayonda turli ijtimoiy va yosh guruhlar ehtiyojlarini, shuningdek, zamonaviy mobil ilovalar orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur [4]. Z.Umarov va O.Jo'rayev tomonidan ilgari surilgan ushbu fikrda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun tijorat banklari tomonidan pul o'tkazmalari turlarini kengaytirish va ularning sifati hamda samaradorligini oshirish muhimligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, turli ijtimoiy va yosh guruhlar ehtiyojlari va zamonaviy to'lov

vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligi ham ko'rsatilgan. Shu bois, Z.Umarov va O.Jo'rayevning fikridagi asosiy tamoyillar o'rinli bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uchun yanada kompleks, tizimli yondashuv talab etiladi.

Ushbu maqolada biz asosan tijorat banklarida aholiga xalqaro pul o'tkazmalari o'tkazish bo'yicha ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini tadqiq qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ko'pchilikning fikricha, naqd pulsiz hisob-kitoblar juda tor sohani qamrab oladigan masala bo'lib, faqat bank xodimlarini qiziqtiradi. Darhaqiqat, bunday operatsiyalarning murakkab jihatlari mutaxassislar doirasiga tegishli. Biroq, hozirgi zamonda ko'pchilik oddiy hayotda yoki ish faoliyatida pul o'tkazmalari bilan to'qnash kelmoqda. Naqd pul o'rnini bosuvchi to'lov vositalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. "Pul o'tkazma", "xalqaro pul o'tkazma", "elektron pul", "kriptovalyuta" tushunchalari keng omma uchun tanish bo'lib bormoqda. Do'stlar yoki qarindoshlarga chet elga pul o'tkazish endi kam uchraydigan holat emas. Kichik va o'rta biznes xalqaro bozorlarga chiqib, valyuta to'lovlarini amalga oshirishga muhtoj bo'lmoqda. Ichki yirik sanoat va savdo kompaniyalari uchun esa eksport-import operatsiyalarining ahamiyati haqida alohida ta'kidlashga hojat yo'q. Demak, xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar soni tobora ko'paymoqda va bu munosabatlarni to'lov operatsiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Pul mablag'larini o'tkazish — bu pullarni naqd shaklda qo'ldan-qo'lga bermasdan, to'lov tizimi orqali bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazish jarayonidir.

Pul mablag'lari o'tkazilishi bank hisob raqamlari orqali ham, hisob raqami ochmasdan ham amalga oshirilishi mumkin. Aslida "pul o'tkazmasi" atamasi ko'pincha aynan hisob raqami ochmasdan amalga oshiriladigan o'tkazmalarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda yuboruvchidan naqd pul qabul qilinadi va oluvchiga ham naqd pul tarzida topshiriladi.

Shuningdek, elektron pul mablag'lari ham o'tkazilishi mumkin — ya'ni, mijoz tomonidan oldindan ta'minlangan pul summasining elektron ekvivalenti. Pul o'tkazmasining yuboruvchisi va oluvchisi sifatida istalgan jismoniy yoki yuridik shaxs qatnashishi mumkin. Agar yuboruvchi va oluvchi turli mamlakatlarda joylashgan bo'lsa, bunday o'tkazma transchegaraviy hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq pul mablag'larini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan tashkilot pul o'tkazmalari operatori deb ataladi. U bunday operatsiyalarda yuboruvchi va oluvchi o'rtasida vositachi sifatida ishtirok etadi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya haqi undiriladi.

Hozirgi kunda pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshiruvchi to'lov tizimlari juda ko'p. Ular o'zaro pul o'tkazish usuli, amalga oshirish tezligi va, shu bilan birga, xizmatlar uchun tariflash tartibiga ko'ra farq qiladi. Oxirgi yillarda bank kartalari orqali, ya'ni kartadan kartaga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan pul o'tkazmalari keng tarqalmoqda. Bunday operatsiyalar «kartalar orqali to'g'ridan-to'g'ri o'tkazmalar» yoki P2P (ingl. person-to-person) o'tkazmalari deb ham ataladi.

Pul mablag'larini o'tkazish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar - yuboruvchi, qabul qiluvchi va vositachidir. Vositachi sifatida to'lov tizimi operatori faoliyat yuritadi. Bunday operator sifatida quyidagilar qatnashishi mumkin: markaziy bank, tijorat banki, xalqaro pul o'tkazmalari tizimi, milliy pul o'tkazmalari tizimi, pul o'tkazmalari xizmatini ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan nobank tashkilot, shuningdek, pochta xizmati.

Pul o'tkazmasining yuboruvchisi sifatida istalgan jismoniy yoki yuridik shaxs ishtirok etishi mumkin. Pul o'tkazmasining qabul qiluvchisi ham jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro pul o'tkazmalarining asosiy turlari:

Bank orqali o'tkazmalar (SWIFT) - banklar o'rtasidagi xalqaro tizim orqali amalga oshadi. Xavfsiz va ishonchli usul, ammo komissiyasi yuqori va vaqt talab qiladi.

Pul o'tkazish tizimlari orqali (Western Union, MoneyGram, Yunistrim va h.k.) pul o'tkazish vaqti tez (bir necha daqiqadan bir necha soatgacha), bank hisob raqami shart emas, faqatgina hujjat va pul.

Onlayn-platformalar orqali (PayPal, Wise (TransferWise), Revolut va boshqalar) - qulay va tez, arzonroq komissiya, biroq ba'zi davlatlarda cheklovlar mavjud.

Kriptovalyuta orqali - cheklovsiz va tez, ammo narx o'zgaruvchanligi va qonunchilik cheklovlarini hisobga olish kerak.

Ushbu xalqaro pul o'tkazmalari turli shartlar asosida, kelishuv mavjud bo'lgan vositachilar o'rtasida ko'rsatiladi.

Jahon miqyosida pul mablag'lari va moddiy qimmatliklarni o'tkazish xizmatlari sohasida turli xildagi biznes-modellar mavjud. Bunday xizmatlarni ko'rsatayotgan barcha vositalar bir xil emas, chunki ular faoliyat ko'lamini jihatidan farq qiladi - kichik mustaqil tashkilotdan tortib, yirik xalqaro korporatsiyalargacha. Ayrim vositachilar faqat mamlakat ichidagi o'tkazmalarni amalga oshiradi, boshqalar esa global darajada ish yuritib, xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshiradilar. Ba'zi vositachilar xalqaro operatsiyalarni cheklangan hajmda bajarishga yoki faoliyatini muayyan "koridorlar"da - ko'pincha o'z aholisi mavjud bo'lgan ikki mamlakat o'rtasida - amalga oshirishga ixtisoslashgan bo'ladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasiga 2023-2024-yillarda xalqaro pul o'tkazmalari orqali kelib tushgan pul o'tkazmalar dinamikasi [5], mln. AQSh doll.

Oylar	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr	dekabr	Jami
2023-yil	793	695	819	775	1038	1037	1071	1076	1055	1060	1045	963	11427
2024-yil	805	738	963	1164	1395	1392	1785	1555	1466	1361	1155	1072	14851
O'zgarishi	+12	+43	+144	+389	+357	+355	+714	+479	+411	+301	+110	+109	+3424

2023- va 2024-yillar bo'yicha xalqaro pul o'tkazmalari orqali O'zbekiston Respublikasiga kelib tushgan mablag'lar tahlili shundan dalolat beradiki, mamlakatga yuborilayotgan pul o'tkazmalari sezilarli darajada o'sgan. Agar 2023-yil davomida umumiy tushum 11,43 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 14,85 mlrd. dollarga yetdi. Bu esa 3,42 mlrd. dollarga yoki 30% atrofida o'sishni anglatadi.

2024-yilning birinchi yarim yilida (yanvar-iyun) har oyda 2023-yilga nisbatan barqaror o'sish kuzatilgan, jumladan, aprel (+389 mln), may (+357 mln) va iyun oylarida (+355 mln) juda yuqori sur'atda o'sish qayd


etilgan. Iyul va avgust oylarida pul o'tkazmalari sezilarli tarzda ko'paygan — mos ravishda 1785 mln. va 1555 mln. dollar. Bu davrdagi keskin o'sish migratsiya faolligi, mavsumiy omillar va mehnat muhojirlarining oilaviy sarflarini qoplash ehtiyoji bilan izohlanishi mumkin. Noyabr va dekabr oylarida o'sish sur'ati biroz sekinlashgan, bu esa mavsumiy barqarorlashuv va yil yakunlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'sish ko'p hollarda xorijdagi mehnat muhojirlarining faoliyati va ular yuborgan pullar hisobiga amalga oshmoqda. Bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligida mehnat

migratsiyasining tutgan o'рни juda katta ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari hajmidagi o'sish, shuningdek, to'lov tizimlari va xizmat

ko'rsatish infratuzilmasining takomillashganligini, raqamli xizmatlar ommalashganini ham tasdiqlaydi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasiga 2023-2024-yillarda xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari kesimida kelib tushgan pul o'tkazmalar [5], mln. doll.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki rasmiy kanallar orqaroli, ya'ni tijorat banklari va to'lov operatorlari orqali kelib tushgan pul o'tkazmalarini yirik uchta guruhga bo'lsa bo'ladi, ya'ni, xalqaro pul o'tkazma tizimlari, P2P (onlayn) pul o'tkazmalari va bank o'tkazmalari.

P2P (onlayn) pul o'tkazmalari 2024-yilda 50 foizdan ortiq o'sgan. Bu raqamli moliya texnologiyalari, mobil ilovalar va onlayn platforma orqali to'lov xizmatlarining ommalashib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, yurtdoshlarimizning raqamli to'lov instrumentlaridan foydalanish saviyasi yuqorilab borayotganini ham aks ettiradi.

Bank orqali amalga oshirilgan xalqaro o'tkazmalar qariyb 111 foizga oshgan. Bu, ehtimol, migrantlar va eksport-import faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar orasida rasmiy moliyaviy kanallardan foydalanishga bo'lgan ishonchning ortishi bilan bog'liq.

Xalqaro pul o'tkazma tizimlarining barqaror o'sishi, ya'ni, Western Union, Zolotaya Korona, MoneyGram kabi an'anaviy tizimlar 2024-yilda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan va 14.4 foiz o'sish qayd etgan. Bu tizimlar hali ham keng to'lov infratuzilmasi, naqd pul olish imkoniyati va ishonchlilik tufayli foydalanuvchilar orasida talabga ega.

2024-yildagi o'sish O'zbekistonda valyuta tushumlari manbalarini diversifikatsiya qilishga va mamlakatning valyuta zahiralarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

2023-2024-yillarda xalqaro pul o'tkazmalarining turlar bo'yicha tahlili shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar ulushi keskin oshmoqda. Onlayn (P2P) pul o'tkazmalarining barcha kanallar ichida eng yuqori sur'at bilan o'sishi – mamlakatda moliyaviy inklyuziya (ya'ni barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoni) va raqamlashuv jarayonlarining izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Bank orqali amalga oshirilgan xalqaro to'lovlarning ikki barobarga ortishi esa rasmiy moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchning mustahkamlanayotganini va korporativ to'lov kanallarining faollashayotganini anglatadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 2023-2024-yillarda O'zbekistonda xalqaro pul o'tkazmalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu holat bir nechta asosiy omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, mehnat migratsiyasi ko'lamining barqarorligi va xorijda ishlayotgan fuqarolar sonining ko'pligi

xalqaro pul o'tkazmalari hajmining oshishiga bevosita ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli moliya texnologiyalarining (fintech) ommalashuvi va moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi ham ushbu jarayonni jadallashtirgan muhim omillardandir.

Xalqaro pul o'tkazmalari O'zbekiston iqtisodiyotida valyuta tushumlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat xonadonlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi, balki mamlakatning valyuta zaxiralari, to'lov balansi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun pul o'tkazmalari YaIM ning 10-20% gacha bo'lgan qismini tashkil qilishi mumkin.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi pul o'tkazmalarini amalga oshirishdagi qulaylik va tezlikni sezilarli darajada oshirdi. Fintech kompaniyalari transchegaraviy to'lovlarda past komissiyalar, real vaqt rejimidagi operatsiyalar va mobil platformalar orqali xizmat ko'rsatish bilan foydalanuvchilarni jalb qilmoqda. Natijada, an'anaviy tijorat banklari bu sohada ularga raqobatdosh bo'lish uchun quyidagi strategik choralarni amalga oshirishi zarur:

Mobil ilovalar va onlayn xizmatlar sifatini oshirish. Zamonaviy bank ilovalari nafaqat

tranzaksiyalarni amalga oshirish, balki hisob yuritish, moliyaviy rejalashtirish, investitsiyalarni boshqarish kabi keng qamrovli funksiyalarni taklif etishi kerak.

Komissiya to'lovlarining qayta ko'rib chiqilishi. Foydalanuvchilar asosan qulay va arzon xizmatlarni tanlaydilar. Shu bois banklar xalqaro pul o'tkazmalari uchun belgilangan komissiyalarni soddalashtirishi va raqobatbardosh stavkalarni taklif qilishi muhim.

Tezkor va xavfsiz to'lov tizimlarini joriy etish. Real vaqt rejimidagi xalqaro o'tkazmalar xizmatlar sifatini tubdan oshiradi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Aholining moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishini ta'minlash uchun raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha targ'ibot va o'quv dasturlarini kengaytirish lozim. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun dolzarbdir.

O'zbekistonda xalqaro pul o'tkazmalari hajmining ortishi moliyaviy tizim uchun ham imkoniyat, ham chaqiriqdir. Bu holat tijorat banklarini zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xizmatlar sifatini oshirish va moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashga undaydi. Mehnat migratsiyasidan kelayotgan moliyaviy oqimlar esa makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qilish bilan birga, moliyaviy sektorni transformatsiyalashning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilip Ratha, Sonia Plaza, Eung Ju Kim *Remittance flows to low- and middle-income countries*//<https://blogs.worldbank.org/en/peoplemove/in-2024--remittance-flows-to-low--and-middle-income-countries-ar>
2. *International transactions in remittances: guide for compilers and users.* [Washington, D.C.]: International Monetary Fund, 2009.
3. Muhammad Naseem. *The Role of FDI and Migrant Remittances in Economic Growth: An Empirical Analysis.* Economics and Finance. Université Clermont Auvergne, 2023.
4. Умаров З.А., Джурбаев О.С. Совершенствование трансграничных денежных переводов в розничном банковском бизнесе // «Евразийский Научный Журнал №4 2022».
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.